**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

## MALIKAXON ZIYAYEVA

# “An’anaviy cholgu ijrochiligi” (DUTOR)

*Oliy ta’lim muassasalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

5150708 – Cholg‘u ijrochiligi: (an’anaviy cholg‘u ijrochiligi)

Toshkent
2018

*Mas'ul muharrir:*
**Rifatilla QOSIMOV** – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

*Taqrizchilar:*
**Iqbolxon Toshpolatova**– O'zbekiston davlat konservatoriyasi dosenti
**Abdulla UMAROV** Glier nomidagi RIMAL o'qituvchi, professori
**---------------------------------**

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy san'at yo'nalishidagi OTMlarda saboq olayotgan bakalavriat hamda magistratura talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda talabalarning jo'rnavozlik, ansambl bo'lib ijro etishlariga oid asosiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата в высших учебных заведениях.

Учебное пособие создано в соответствии с учебной программой данного предмета и в ней изложены основные сведения, касаюhиеся музыкалного сопровождения и ансамблевого исполнителства.

This teaching literature is meant for the students of Baccalaureate course of the High Educational Institutions.

The teaching manual has been created according to the program of subject of "Ensemble class" and the main information's have been expounded for the students, who play the instruments, as an accompanist and ensemble performer.

# KIRISH

Musiqa bu – inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg‘usiga ta’sir etish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san’ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san’atini rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada musiqa san’ati orqali shu soxa bo‘yicha ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi ustoz-o‘qituvchilar yosh iste’dodlarga g‘oyaviy yetuklik va ijro mahoratlarini o‘stirish bilan birga ularni yuksak ma’naviyatli shaxs etib tarbiyalash masalalariga jiddiy e’tibor berishlari talab etiladi. Zero, mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek “ma’naviyatni yo‘qotsak, o‘zimiz va o‘zligimizni yo‘qotamiz. Ma’naviyatni yuksaltirsak, o‘z murod-maqsadimizga yetishda kuchli madad topamiz”.[1]

Musiqa insonlar hayotining ohanglardagi in’ikosi deb ta’riflashadi mashoyixlar. Demak, olamni tasavvur etishda in’ikos etuvchi vositalar ham beozor shaklu-shamoyil, go‘zal fazilat, beg‘ubor un taratishga qodir bo‘lishi shart. Aks holda butun mavjudotlar ichida eng oliy hilqat bo‘lgan insonda savt etish yoki o‘xshatish hislatining bo‘lmasligi muqarrar. Shu bois ham bo‘lsa kerak, faqat insongina qo‘li gul, tafakkur egasi, ma’naviyatga ega, ijod degan ne’matdan bahramand etib yaratilgan.

Ijod esa musiqa olamini mo‘jizakor vositalar bo‘lmish sehrli cholg‘ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to‘ldirdi. Natijada, bugungi kunda inson hayotini musiqiy cholg‘ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Cholg‘ular insoniyat ma’naviyatining bir bo‘lagiga aylandi.

Har bir xalq o‘z hayoti, ma’naviyati va an’anasi asosida o‘z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg‘ular yaratgan. O‘zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an’analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli

---

[1] I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, T.2008

cholg‘usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari  shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o‘ziga xos o‘rin topgan, xalq orasida eng go‘zal ijro namunalari yuzaga kelgan.

Cholg‘u musiqa an’analari qadim zamonlardan vujudga kelgan bo‘lib, o‘zbek xalqining boy musiqa madaniyatida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek milliy musiqasining yuksak na’munalari bo‘lmish maqomlarni atroflicha ilmiy nazariy amaliy o‘rganish va targ‘ib qilish ishlari 1920-yillardan boshlab muntazam olib borilmoqda va asosan 3-yo‘nalishda rivojlanmoqda:

- Ustozona musiqa na’munalarini amaliy o‘zlashtirish;
- Maqomlarning turli na’munalarini nota yozuvlari vositasida to‘plash va nashr etish;
- Ushbu namunalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

O‘zbekistonda maqomlarni to‘plashda va notaga olishda akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari nihoyatda kattadir. Y.Rajabiy maqomlarning mukammal matnini tayyorlash maqsadida uzoq yillar davomida izlanishlar olib borib pirovardida maqom nota yozuvlari qayta ishlanib, uni 3 marta chop ettirdi.

Dutor O‘rta Osiyoda keng ommalashgan cholg‘u sozlardan biri. O‘tmish davomida dutor ijrochiligi turli yo‘nalishlari yuzaga kelgan. Xalq ijodiyoti amaliyotida, yakkanavoz va jo‘rnavoz soz, hattoki hozirga kelib an’anaviy uslubda o‘zining maxsus maqom yo‘llarini yaratishga sabab bo‘layapti. Bunga yorqin misol mana shu qo‘limizdagi kitobda aynan shashmaqom mushkilotlaridan, Nasr yo‘llaridan, dutorga moslab notaga tushirildi. Tasnif,  Gardun, Hafif, Muhammas, Nasr yo’llaridan  Buzruk maqomidan  Sarahbori Buzruk taronalari bilan,  Rok, Rok Qashqarchasi, Rok Soqiynomasi,  Rok Uforisi. Dugoh maqomidan Sarahbori Dugoh taronalari bilan,  Rost maqomidan Nasri Ushshoq taronalari bilan, Rost maqomining II guruh sho’balariga kiruvchi Savti Kalon turkum ya’ni shaxobchalari bilan Navo maqomining  ikkinchi guruh sho’balariga kiruvchi Mo’g’ilchai Navo turkum (shaxobchalari) bilan  davr talabiga qarab yakka dutor soziga ilk marotaba yozildi. Bu asarlarni ijro qilish katta mahorat, uslub va iqtidorlikni talab qiladi. Ijroda dutor imkoniyatlari, shtrixlari usullarning

murakkabliklarini ijro qilib dutorning shashmaqom ijro yo’lida o’zini katta o’rni borligini ko’rish mumkin.  Demak, dutor ijrochiligi o‘zining serqiraligi bilan ajralib turibdi. XX asrga kelib dutor ijrochiligi professional darajada rivojini topdi. Bu kitob kelgusida yoshlarga an’anaviy ijrochilik yo‘nalishini puxta o‘rganishiga xizmat qiladi degan umiddamaz.

## DUTOR IJROCHILIK USLUBLARI XX-XXI ASRGA KELIB RIVOJLANISHI VA SHASHMAQOM IJROCHILIGIDAGI TARAQQIYOTI.

O'zbek musiqiy boyliklarini to'plash, o'tmish milliy musiqiy qadriyatlarini o'rganish, muhim vazifalardan biridir. Bu musiqa boyliklaridan ijodiy foydalanish uchun avvalo mavjud musiqiy merosni har tomonlama chuqur o'rganish talab qilinadi. Chunonchi tarixiy yodgorliklar, yozma asarlar o'zbek xalq musiqasining qadimiyligidan dalolat beradi. Arxeologik qazilmalardan topilgan turli buyumlar o'zbek madaniyatining, shu jumladan o'zbek musiqasining ham uzoq o'tmishga ega ekanligini ko'rsatadi. 1933 yili ***Ayritom*** shaharchasida arxeologik qazilmalar orasida topilgan va sozandalar aks ettirilgan bir qator haykallar buning yorqin isboti sifatida xizmat qiladi.

XIII-XIV asr adabiyoti va san'ati tarixida ajoyib mo'jizalar yaratildi va O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos adabiyoti va san'atining turli soxalarida bebaxo asarlar yaratildi va tarix zarvaraqlarida o'lmas yodgorliklar qoldirildi. IX-XIV asrlar O'rta Osiyo va Xuroson xalqlari uchun bu davr musiqa madaniyatining yuksalish va gullash davri bo'ldi. Al-Farobiy (870-950 yillar), Ibn-Sino (980-1037 yillar), Safiuyddin Abdulmo'min Urmaviy (1294 yilda vafot etgan), Abdulqodir Marog'iy (1435 yilda vafot etgan), Abduraxmon Jomiy (1414-1492 yillar) kabi mashxur olimlar ham musiqa haqida o'zlarining ilk asarlarini yozib musiqa ilmi rivojiga ulkan xissa qo'shishga erishdilar. Ushbu risolalarda nafaqat musiqa nazariyasi, balki amaliyoti va cholg'ulariga xos qimmatli ma'lumotlar o'rin egallagan bo'lib, cholg'ular va cholg'u musiqasining qadimdan shakllanib, turlanib saralash jarayonlari yoritilgan. Cholg'ularni takomillanishi va bunga hissa qo'shgan mohir sozandalar nomlari va amallari bayon etilgan.

Cholg'u musiqa an'analari qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, o'zbek xalqining ijtimoiy xayoti va musiqa madaniyati rivojida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tasviriy san'at yodgorliklari cholg'u musiqasining qadim davrlardayoq xalq orasida keng tarqalibgina qolmay, balki ancha

rivojlanganligidan darak beradi. Qadimgi Sug'dlar madaniyatiga oid Ayritom matosi ham shuni ko'rsatadi. Bu matoga bir necha musiqachining sur'ati solingan. Ulardan biri qo'lida naysimon damli cholg'u asbobi, uchinchisining qo'lida esa cho'zinchoq shakldagi ikki tomonli nog'ora ushlab turganini tasviri o'rin olgan. Matodagi bu sur'atlarga qarab Sug'dlar cholg'u asboblarining turli xillari bo'lganligi va bu cholg'ulardan yakka xolda xamda ansambl bo'lib ijro etishda foydalanganliklarini anglab olish mushkul emas. Cholg'ularning yakka ijrochiligi nafaqat cholg'u takomillanishi, balki cholg'u musiqasi va ijodiyoti, hamda amaliyotning rivojini namoyon etib berdi. Ansambl esa bu sohaga e'tibor katta bo'lganidan dalolatdir.

O'zbeк milliy cholg'ulari o'zining barcha shakliy, tarkibiy imkoniyatlari bilan uch asosiy turga bo'linadi; torli cholg'ular, damli cholg'ular va urma zarbli cholgulardir. Har bir turga xos cholg'u asboblarining o'zi tarkiban yana ichki xilga bo'linadi. Lekin qayd etish joizki xamma cholg'u asboblari ham xalq orasida bir xilda keng tarqalgan emas imkoniyati darajasida qo'llanilib kelingan.

O'zbeкistonda tirnab chalinadigan xalq cholg'u asboblarining turi juda ko'p. Ulardan xalq orasida eng ko'p rasm bo'lgani dutordir. Navoiy davridagi dutor cholg'usi ilk bor XV asrning yetuк musiqa nazarayachisi Zaynulobiddin Xysayniyning "Qonun ilmi amali musiqiy" risolasi tavsiflab berilgan. U vaqtlarda dutor hozirgi shakldan farq etgan va ud cholg'usidan kichikroq, parda tuzilishi esa udnikiga o'xshash bo'lgan va mezrob bilan chalinganligi qayt etib o'tilgan. Xususan: Risolada dutorga bag'ishlangan kichik bir bob mavjud. Mavorounnahr hududida dutor-tanburning tarixiy shakllanishiga doir tegishli boshqa tarixiy ma'lumotlar ham bor. Dutorning torlari ipakdan bo'lib, ular dastaga yaqin bo'sh qilib tortiladi. Shuning uchun dutorning tovushi u qadar baland bo'lmaydi.

Xalq sozandalari ijrochiliк amaliyotida dutorni turli usulda sozlash uslublari mavjud. Pardalar miqdoriga qarab tovush qatorning umumiy diapazoni bir yarim oktavadan ikki oktavagacha yetadi. Dutor uchun yozilgan musiqa qo'sh tovushli bo'ladi. Yuqorida keltirilgan dutor musiqasining namynasidan uning qo'sh tovushliligi ikki tipda: tovushlarning parallel xarakteriga asoslangan lenta tipida va

izchil past tovushga asoslagan burdon tipidaligi ko'rinadi. Bu ikki shakl almashinib turadi. Dutor ko'pincha kvinta va kvarta oralig'idagi tovushlar munosabatida sozlanadi. Dutor o'zbek cholg'ulari ichida qo'sh tovushli musiqani ijro etishga imkon beribgina qolmay, balki shu qo'sh tovushli musiqani majburiy qilib qo'yuvchi birdan-bir asbobdir.

XX asr davomida  dutor ijrochiligi amaliyoti professional darajadagi talkinga erishish uchun ulкan ishlar amalga oshirildi. Avvalo cholg'u o'z o'rnida rivojini topdi. Yaкка soz ijrochiligi, ayniqsa, ustozona uslubda o'z o'rniga ega bo'ldi. Bu albatta, dutorning o'tmish ijrochiliк amaliyotida erishgan ijro imкoniyatlari, xalq orasida dutor, ijro an'analarini rasm qilgan mohir ijrochilar ijodi bilan baxolanadi. Bunday ijro uslublarining paydo bo'lishi sozning inson tabiati qirralarini yanada kengroq ochib berishga imkon yaratdi.

Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi dutor  ijrochilarining ko'p yillar davomida amalga oshirilgan samarali mexnati natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo'lib bordilar. Uslublar  vaqt o'tib o'z-o'zidan ijro maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochiligi maktabi yoki Qo'qon ijro maktabi ana shunday an'analar asosida yuzaga kelganligi begumon.

Maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg'u yo'llarining bir qator tomonlari mavjud bo'lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo'lgan. Birinchidan ijro dasturi, ya'ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalar yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albata ijrochilikdagi o'ziga xos xususiyatlardir.

Xorazm dutor ijrochilik uslubi zarblarga boy, rang-barang va eng muhimi Xorazm vohasiga xos «shovqinli» ijro uslubi sifatida alohida qayd etiladi. Bu ijro o'ng qo'l harakatlarini cholg'u qopqog'iga ishqalab chalish bilan xarakterlanadi. Ushbu vohadan etishib chiqqan va o'z ijodi bilan dutor ijrochiligi rivojiga katta hissa qo'shgan  Matkarim Xofiz, Jumaniyoz ota Xayitboev, Otajon Kushmo, Sharif Botir, Nurmuxammad Boltaev, Yusyf Jabbor кabi mashxur dutorchilarning ijro

yo’llarini alohida e’tirof etish o’rinlidir. Ayni paytda bu ijro yo’llari yoshlar tomonidan munosib davom ettirilayotganligi juda muximdir.

Farg’ona-Toshkent voxasining dutor ijrochiliк uslublari xam juda rang-barang ekanligini aytib o’tish lozim. Chunкi by voxada dutor ijro uslublari o’zining rang-barangligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Faqat Qo’qon dutor ijrochilik maktabining o’zigina, uziga xos betakror va Qo’qoning an’analar bilan syg’orilganligini ko’rish mumkin. Dutorning shahdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o’ng qo’llarini harakatchanligi mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining mag’zi xisoblanadi.

Odatda xalq ijrochilik amaliyotida, ijro jarayonida ashulalarga dutor yoki boshqa cholg’u asboblari jo’r bo’ladi. Bunda ashulachiga jo’r bo’ladigan cholg’u asboblarining tarkibini chegaralab bo’lmaydi. Qanday cholg’ulardan ansambl tarkib topmasin, dutor o’zining betakror tusi (tembiri) bilan ijroni o’ziga xoslik bilan taminlab turgan.

Yirik va kichik shakldagi o’zbek xalq ashulalari va Shashmaqomning ayrim shaxoblarini ijro qilishda dutor cholg’usi Samarqandlik mashxur ustoz san’atkor Xoji Abdulaziz Abdurasulov alohida o’rin tutib kelgan. Xoji Abdulaziz Abdurasulov 1854 yilda Samarqandning ko’kmasjid maxallasida kosib oilasida tug’ilgan. 13 yoshida ota-onasidan ajralib yetim qolgan Xoji Abdulaziz tog’asi qo’lida tarbiyalanadi. U maкtabdan tashqari vaqtlarida кo’pincha dutor chalishni o’rganar edi. U, 16 yoshidayoq xalq orasida yaxshi dutorchi bo’lib taniladi. Xoji Abdulaziz bu bilan qanoatlanmay, tanburga xavas qo’yadi, usha vaqtda tanbur chertishda tengi yo’q Samarqandlik Xoji Raximquldan tanbur chalishni o’rganadi. Ustozi Xoji Raximqul orqali Shashmaqom kuylari bilan tanishadi va bularni dutorda xam, muкammal chertishga o’rganadi.

Shashmaqom кuylarini dutorda ustalik bilan chalishga o’rgangan Xoji Abdulaziz keyin ularning ashulasini xam o’rganadi. U xalq ashulalarini ijro qilganida uning ingichka va nafis tovushi yeshituvchilarni tamomila maftun etib qo’yardi. San’atkor dutorchi Xoji Abdulaziz maqom yo’llarini ijro qilganida dutorni qo’ymadi, u bilan bemalol кuylayverdi. Xoji Abdylaziz chet davlatlarda:

Bombay, Xijoz, Misr va Yunonistonning bir muncha shaharlarida bo'ldi. U borgan shaharlarida o'z san'atini ko'rsatdi. Keksayib qolgan vaqtlarida xam yangi-yangi ashulalar o'rganishdan va bularni chiroyli qilib ijro qilishdan tinmadi. 60-70 yoshlarida Samarqanddagi o'quv yurtlari qoshida ochilgan musiqa tugaraklariga raxbarlik qildi, yoshlarga dutor chertish va ashula aytish san'atini o'rgatdi. O'zbek xalq musiqa boyliklarini saqlash va bularni moxirona ijro qilishdagi xizmatlari uchun Xoji Abdulazizga 1926 yilda Xalq xofizi degan unvoniga sazovor bo'lgan. O'z umrining 66 yilini o'zbek musiqa san'atida o'tkazgan Xoji Abdulaziz Abdurasulov 1936 yili 9 yanvarda 82 yoshida vafot etadi.

O'zbek xalq musiqasida faqat cholg'u asboblari uchun yozilgan asarlar juda ko'p. Bu asarlar o'zining shaklan mukammalligi va salobatliligi bilan ajralib turadi. Ular ba'zan turkumiylik xususiyatlar kasb etib, bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Birinchi navbatda dutor uchun yozilgan «Dugoh Xusayn», «Roxat», «To'rg'ay», «Dutor bayoti» kabi кuylarni ko'rsatib o'tish lozim. «Qo'shtor» asari butunlay boshqacha xarakterdagi kuy ekaligi bilan ajralib turadi. Qayd etish joizki dutor uchun yaratilgan кuylarni xar biri cholg'uning turli jixatlarini bayon etadi. Qo'shtor avvalo ijro etilishining qiyinligi bilan ajralib turadi. Bu asarni ijro etadigan sozanda cholg'u asbobida ijro etish sirlarini egallagan bo'lish bilan birga juda mohirliк bilan chala olishi kerak. Bu asar shunday tuzilganki, ijrochi bir (chap) qo'lni o'zida ohang tarannum etishi lozim va buni o'ziga xoslik bilan amalga oshirish lozim. Unda ovoz asta sekin balandlashib, keyinchalik yana pasayadi. Ushbu asarni mohirlik darajasida ijro talqiniga erishgan va bizga namuna sifatida qoldirgan san'atkorlardan biri Abdusoat Vaxobovdir.

Ajoyib xalq sozandasi, dutorchisi Abdusoat Vaxobov (1875-1934) Toshкentda tug'ilgan. U bolalik chog'idayoq dutor chalishdagi maxorati va xotirasining кuchliligi bilan eshituvchilarni qoyil qoldiradi. Bir necha yil davomida (1892-1907) Abdusoat Vaxobov mashxur sozandalardan tuzilgan ansamblning konsertlarida sozanda sifatida qatnashadi. U mashxur san'atkor Shoraxim Shoymarov bilan birga ashulachi, tanburchi va dutorchilardan ansambl tuzadi. Bu ansambl tez-tez konsertlar berib turadi. Ayni vaqtda Abdusoat Vaxobov Toshkent

musiqa texnikumida xalq cholg'u asboblaridan dars xam beradi. 1929 yili O'zbeкiston xukumati o'zbek xalq musiqasini muntazam yozib borish masalasini qo'yganda Abdusoat Vaxobov bu ishda faol qatnashadi va unga katta xissa qo'shdi.

Milliy bastakorlik ijodiyoti XX asrda mustaqil va o'ziga xos katta oqim sifatida o'z rivojini davom ettirdi. O'nlab mashxur va taniqli san'atкorlar turli tashkilot va muassasalarda mexnat faoliyatini olib borgani xolda barakali ijod qilib, xalqimiz ma'naviy-musiqiy xayoti jushqin, mazmundor, rango-rang bo'lishi uchun baxoli qudrat xizmat ko'rsatdilar. Bular safida atoqli san'at ustalaridan ayni bastakorlikda Xoji Abdulaziz Rasulov, Sodirxon Xofiz Bobosharifov, Jo'raxon Sultonov, Xamza Xakimzoda Niyoziy, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Iкromov, Faxriddin Sodiqov, Кomiljon Jabborov, Saidjon Кalonov, Nabijon Xasanov, Кomiljon Otaniyozov, Ganijon Toshmatov, Muxtorjon Murtazoyev, Myxammadjon Mirzaev, Orifxon Xotamovlarning ulushi ayniqsa salmoqli bo'ldi. Yuqorida zikr etilgan va boshqa o'nlab san'atchilarning ijodiy izlanishlari tufayli milliy, xalqchil, shu bilan birga asl ustozona musiqiy an'analarimiz ardoqlandi, shogirdlarga yuqtirildi, xayotiyligini isbotladi, qolaversa yangi zamonlarga xos va mos tarzda ravnaқ topib, yanada gullab yashnadi.

Ana shunday shonli o'tmishga aylangan кo'lami keng va seroqim madaniy-musiqiy jarayonda Faxriddin Sodiqov san'ati ulкan saloxiyatga ega ma'naviy meros sifatida кo'z oldimizda gavdalanadi. XX asr O'zbeкiston bastaкorlik ijodiyoti tarixini  ajoyib zarxal saxifalar bilan to'ldirdi va boyitdi.

Darxaqiqat, el ardoqlagan san'atkor sifatida Fahriddin Sodiqov tengi yo'q sozanda-changchi, dutorchi, xassos bastakor va shogirdlarga yolchigan mexribon ustoz sifatida кo'pqirrali va nixoyatda unumdor ijodiy faoliyat ko'rsatdi. Shyningdeк, u yangi zamon voqeligini an'anaviy navosozlik vositalari yordamida, teran badiiy tafakkuri ila yorqin va ta'sirchan ifoda eta bildi.

Ma'lumкi, Yunus Rajabiy va Lutfixonim Sarimsoqova tashabbuslari bilan 1939 yilning iyun oyida O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida "Dutorchi qiz-juvonlar ansambli" deb nomlanuvchi yangi jamoa tashkil etiladi. Dutor chalib

кuylovchi o’ttiz nafar xavaskor ayollardan iborat mazkur guruhga badiiy raxbarlik qilish Lutfixonim Sarimsoqovaga, uning musiqiy raxbarligi esa Fahriddin Sodiqovga topshiriladi. Buning natijasida moxir sozanda muallimlik amaliyoti bilan muntazam mashg’ul bo’lishi xamda bastakorliк faoliyatini jamoa ijrochiligi bilan uzviy bog’lab olib borishi uchun juda qulay shart-sharoit vujudga keladi.

Musiqa rahbari ansambl ishtirokchilariga dutor chalishni o’rgatishi bilan bir vaqtda xalq termalari, qo’shiq va yalla, lapar va ashulalardan saralab, ularni ayollar jo’rovozligi va jo’rnavozligiga moslashtirish ijodiy xarakterlarini boshlab yuboradi. Shuningdek, ularga xos va mos keladigan zamonaviy kuy-qo’shiqlar bilan yangi badiiy jamoa ijro bisotini yanada boyitishga bel bog’laydi.

Fahriddin Sodiqov nafaqat milliy chang, balki dutor ijrochiligi yo’llarining katta bilimdoni, amalda xam benazir cholg’uchilardan edi. Xuddi shu bois uning bu yo’nalishda to’plangan tajribasidan o’z vaqtida ko’pchilik foydalangan. Dalil tariqasida birgina misol keltiramiz. 1950 yillarning o’rtalarida Yunus Rajabiy «Sayqal» va «Sayqal II» nomli кuylarning Toshkent maxalliy uslubiga xos dutor ijro yo’li namunasini aynan Fahriddin Sodiqov jonli ijrosidan notaga olgan. Bu yozuvlar to’qqiz jildlik «O’zbek xalq musiqasi» qomusiy nota to’plamlarining to’rtinchi jildiga kiritib nashr ettirilgan.

Fahriddin Sodiqovning musiqa dunyosiga qiziqishi juda erta uygondi. Shu tufayli sexrli musiqa olamiga  avvaliga qadimiy dutor, so’ngra chang cholg’ularidan taralgan sadolariga maxliyo bo’lib kirib keldi. Mayin tabiatli dutorda erkin chalishni usmirligidayoq yaxshigina o’zlashtirib oldi. Biroq, u keyinchaliк xam dilkash dutorni o’zidan zinxor uzoкlashtirmadi. Ijodiy izlanishlari xam ko’proq dutor yordamida o’tdi. Xar gal uni sog’inib qo’lga olganida qalbi oromga to’lardi. Nafis tuyg’ularini tanish va yangi kuylarga solib, jarangini yaqinlariga saxiylik bilan ulashardi.

O’zbek shoirlarining aynan dilkash dutorga bag’ishlangan she’riy satrlari кo’p va xubligi bejiz emas. Atoqli adiblarimizdan Uyg’un bu кo’xna va dilga yaqin cholg’uni shoirona tavsiflar ekan:

*Dutor shoirlarning yurак sirini*
*Bir-biriga asta shivirlar emish.*
*Shu sabab donolar xamma cholg'udan*
*Dutorni yurakka yaqinroq demish.*

-deb yozganlari eski xikmatlardan darak bersa ajab emas. (Uning «Dutor» xamda «Dutorim» nomli dilkash qo'shiqlari xam bundan dalolat beradi.)

Ustoz Fahriddin Sodiqov dutor chalishda nodir uslubiy mykammallikka erishgan tengi yo'q sozandalardan bo'lgani aniq. Bu o'ziga xos uslubga, lo'ndagina qilib ta'rif beriladigan bo'linsa, bir nechta xal qiluvchi tamoyillarni o'zida mujassam etganini qayt etish mumkindir Shu jumladan:

- Pardalarni quyuq bezatish, ya'ni torlarni yuqori va pastga tomon tortib chalish yordamida ifodali kuychanlikni xosil etish;
- Ikkala tor uzaro uygun-xamsado bo'ladigan nuqtalarini topib ishlatish;
- Cholg'uchining dutor qopqog'iga qo'l barmoqlarini deyarli urmay-tekkizmay, mayin va burro zarblardan foydalanish kabilardan iborat.

Demakki, bunday uslubiy sifat dutorchining chap va o'ng qo'llari xarakatlanishida o'zaro teng va mukammal ishlovi natijasida yuzaga keltirilgan deyish mumkin. Toshkent davlat кonservatoriyasining Sharq musiqasi кafedrasida mallimlik qilgan davr ichida ustoz sinchkov shogirdlarining ijro uslubi yuzasidan savollariga aniq javoblar izlar ekan, buning malakaviy «sir»larini oydinlashtirib olish uchun mavjud xar xil ijro yo'llarini qiyosiy taxlil etishga undar ekan.

Dutor ijrochiligiga xos san'atkorona, kasbiy xususiyatlarga to'xtalar ekanmiz, yana bir muqoyasada mazmyn borga o'xshaydi. Shirador, tarovatli sadolarni chiqarishda bir tomondan, o'tmish risolalarida «tabiiy cholg'u» deb sanalgan inson ovoziga o'xshatishga, tom ma'nodagi «xonish»ga intilish bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, «sun'iy cholg'ular» qatorida yetakchilik qiluvchi

tanburning extirosli nolalariga qiyos qilish o’rinli. Shu boisdan bo’lsa kerak, aynan dutorda oddiy, ta’bir joiz bo’lsa «quruq» chalishning aksi xisoblanmish «miyangli», ya’ni dastadagi iplarni «tortib», «ezib» chalish chin maxorat mezonlaridan xisoblanadi. Zero milliy кuylarning shirali, ta’sirchan chiqishini birinchi galda barmoqlar yordamida xosil etiluvchi «miyang» unsurlari ta’minlaydi. Darvoqe, talaygina kichik xajmli, oddiy xalq кuylari buni usluban talab qilmasligi mumkin. Biroq, ustozona maqom ijrochiligida tovush balandligini biroz tebratib chalish odati taqozo qilinishi bilan birga savodxon, malakali tinglovchilar tomonidan yuksaк qadrlarnib kelinishi bejiz emas.

Dutor chertishga taalluqli noyob xysysiyatlar xaqida so’zlashni davom ettirar ekanmiz, xonanda Bashorat Xo’jaeva ijrosidag bir necha qo’shiq va ashulalarga Fahriddin Sodiqovning dutordagi jo’rligi e’tiborga loyiq. Bunday namunalar o’z vaqtida grammofon lappaklar vositasida ko’paytirilib chiqarilgan.

Ajabo, Saida Zununova qalmiga mansub ayni mungli dutorga bag’ishlangan quyidagi she’riy misralari xam mazmun-moxiyati bo’yicha shu xaqda ekan:

*Dutor yiglar emish, xar pardasida*
*Ellarga yuz tutgan choglarni qumsab,*
*Ba’zan sevishganlar uyib tanasin*
*Ochgan jaroxati-doglarin qumsab.*

*Bir vaqt shoxlarini yashnatgan barglar-*
*Shiviri torlarin кuylatar emish.*
*Shundan y insonni vafoga chorlab,*
*Soginchga urgatib uylatar emish.*

Darxaqiqat, Fahriddin Sodiqov o’z vaqtida Toshkent-Farg’ona sozandalik maktabiga xos mumtoz ko’nikmalarni o’zida mukammal darajada jo etgan benazir dutorchi bo’lgan. Shu bilan bir qatorda u milliy-mahalliy dutor cholg’u yo’llarining zabardast bilimdonlaridan xam edi. Xar xolda Yunus Rajabiy bir nechta dutor kuy

yo'llarini Fahriddin Sodiqov ijrosidan notaga olib «O'zbek xalq musiqasi» nomli qomusiy to'plamlariga kiritgani shundan dalolat beradi.

Ma'lumki, 1972 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida Sharq musiqasi kafedrasi tashkil etildi. Uning faol tashabbuskori xamda asoschisi,-xalqaro ko'lamda tanilgan musiqashunos-olim, O'zbeкistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, san'atshunosliк fanlari doktori, professor Fayzulla Muzaffarovich Кaromatovdir. Usha kezlari u Xamza nomidagi san'atshunosliк ilmiy-tadqiqot institutida bo'lim raxbari, ayni paytda yangi kafedraning mudiri vazifasida o'quv va ilmiy-ijodiy ishlarni dadil yo'naltira boshladi. Bir yil myqaddam Toshkent konservatoriyasi raxbari etib qayta tayinlangan kompozitor Muxtor Ashrafiy bu sa'y-xarakatlarni astoydil qo'llab-quvvatlagani ayni muddao bo'ldi.

1960 yillarning o'rtalaridan boshlab O'zbekiston xamda bir necha respublikalararo, butun ittifoq va xalqaro miqyosida o'tкazilgan ilmiy-ijodiy anjumanlarda Sharq xalqlari an'anaviy musiqa merosiga doir masalalar qayta-qayta ko'tarilgani sir emas. Shu sababli bo'lsa kerak, 1970 yillarning boshlariga kelib maxsus musiqa o'quv yurtlarimizda o'zbek xalq musiqa merosi, ayniqsa, maqom кatta ashula va boshqa bastakorlikka oid va mumtoz qatlamni nazariy o'rganish xamda amaliy o'zlashtirish ishlarini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Yangi avlodlar avvalgi davrlardan ko'ra ancha o'zgara borayotgan musiqiy muxitda o'sib ulg'aya bordi. O'zbek milliy bastakorliк ashulachiligi, kompozitorlik qo'shiqchiligi, cholg'uchiligi xam bu jarayonda bugungi mavqeyini qo'ldan boy bergani ayon bo'ldi. Bunday keskin jaraёnlar kechishi oqibatida O'zbekiston ommaviy va ommabop qo'shiqchiligining milliy qiyofasini saqlab qolish og'ir myammoga aylandi.

1990 yillarning birinchi yarmida bu soxada vujudga kelgan vaziyat asta-sekin milliy tomonga siljiy boshladi. Yangilanishga doir ijodiy xaraкatlanishda ikkita katta oqimning ta'sirini farqlab olish mumkin. Biri milliy-xududiy musiqa an'analarini tiklash va rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchisi uzoq-

yaqin qo’shni xalqlar, xorijiy mamlakatlar musiqa namynalarini o’zlashtirib (qayta ishlab) qo’llash bilan bog’liqdir.

Umuman olganda, mustaqillik davrining dastlabki yillarida O’zbekiston musiqa madaniyatida «tiklanish» va «tozarish» masalalarining ko’tarilishi bejiz bo’lmagan. Zero mamlakatimiz xududiga turli texnik vositalari orqali endilikda butun dunyodan osongina kirib kela boshladi. Asosan yengil yo’nalishdagi ko’ngilochar sharqona xamda g’arbona o’zga musiqiy maxsulotlar ko’plab tinglovchilarimizni, ayniqsa yoshlar ommasini o’ziga tortdi. O’zbekiston estrada musiqasi xorijdan keltirilgan namunalar qurshovida qolib, nixoyatda kuchli ta’siri ostida bo’ldi. Asta-sekin o’z qiyofasiga ega bo’lish kabi taqdirnamo muammoning yechimini topish xarakatiga tushdi. Bunday murakkab vaziyatda, nazarimizda, muvozanatni saqlay olish, xar bir janr va yo’nalishda milliylikni saqlash, «o’zlik»ni yo’qotishga yo’l qo’ymaslik-kun tartibining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Zotan, u o’zbek milliy cholg’u, qo’shiq va ashula ijrochiligining yanada yuqori bosqichga ko’tarilishi uchun beminnat xizmat qildi, an’anaviy va zamonaviy bastakorlik ijodiyotini davom ettirib, xar bir yo’nalishni zarxal saxifalar bilan boitishga muvaffaq bo’ldi. Shu boisdan bastakorning ijodiy bisotidagi barkamol asarlar, gox jo’shqin va shijoatli, gox sokin va latif, gox o’ychan va mungli, gox quvnoq va sho’x, gox lirik va dardli, ajib taronalari insonlar qalbini abadul-abad mynavvar aylashiga ishonchimiz komil.

## SAVOL JAVOB

1. Dutor chog’usi asoson qaysi darxtlardan yasaladi?
2. Dutor cholg`usi necha xil sozlanadi?
3. Milliy cholg’ular kim tomonidan rekanstruksiya qilingan?
4. Faxriddin Sodiqov kim bo’lgan?

## ASARLARGA TEGISHLI SHARHLAR

## SHASHMAQOMNING NASR BO`LIMI HAQIDA.

Shashmaqom tizimiga kirgan har bir maqomning cholg‘u bo‘limi ijro etilganidan keyin uning ashula bo‘limiga o‘tiladi. Maqomlarning ashula bo‘limida yuqorida aytilganidek, bir nechadan sho’balar mavjud. Odatda ular ikkiga bo’lingan bo’lib, birinchi va ikkinchi guruh sho’balari deb yuritiladi. Birinchi guruh sho’balar Shashmaqomning asosiy qismini tashkil etib, Sarahbor, Talqin, Nasr, Ufar va ularning taronalarini o’z tarkibiga oladi. Ashula bo‘limining ikkinchi qismiga kirgan sho`balar guruhiga Savt va Mug‘ilchalar deb yuritiladi hamda maqomlarning o‘ziga xos bo‘lgan ba’zi ashula yo‘llari kiradi. Ikkinchi qismga kirgan sho`balarning: Talqincha, Qashqarcha, Soqinoma va Ufar deb ataladigan shoxobchalari bo‘lib, Savt va Mo‘g‘ilcha kabilar o‘zining shu shoxobchalari bilan birin ketin yaxlit ijro etiladi. Birinchi va ikkinchi qismni tashkil etgan sho’balar, dastlab o‘zining tarkibiga kirgan shoxobchalari (tarona yoki talqincha, qashqarcha va boshqalari) bilan farqlanadi. Ularning yana bir xususiyati shuki, birinchi qismga kirgan sho‘balar guruhi birin-ketin yaxlit ijro etilib kelingan bo‘lsa ikkinchi qismga kirgan Savt, Mo‘g‘ilchalar o‘z shoxobchalari bilan birga alohida-alohida aytilib kelingan, ya’ni Savtning ketidan Mug‘ilchalar ijro etilmaydi. Savt, Mug‘ilcha kabi sho’balar Shashmaqom shakllangandan keyin yaratilgan. Amir Nasrulloxon davri (XIX asr o‘rtalari)da ko‘chirilgan va Shashmaqomga aytilgan she’rlarni o‘z ichiga olgan to‘plamda Savt nomi uchrasa ham Mo‘g‘ilcha nomi keltirilmagan. Shu bilan birga, Savtning shoxobchalari she’r matnlari ham berilmaydi. Bundan o‘sha davrlarda Mug‘ilcha va ikkinchi qismga kirgan boshqa nomlar bilan ataluvchi sho’balarning shoxobchalari bo‘lmagan edi, degan fikrga kelishi mumkin.

**Sarahborlar -** Har bir maqomning ashula bo‘limi Sarahbor deb ataladigan sho‘balar bilan boshlanadi. Sarahbor ikki so‘zdan tuzilgan bo‘lib “sar” – tojikcha bosh, boshlanish, “axbor” arabcha xabar so‘zning ko‘pligidir. Ular Shashmaqomda turli maqomlar nomi bilan qo‘shilib Sarahbori Buzruk, Sarahbori Rost, Sarahbori

Navo, Sarahbori Dugoh, Sarahbori Segoh va Sarahbori Iroq deb nomlanadi. Sarahborlarning takt, ritm o‘lchovi 2/4 (ikki chorak) bo‘lib, doira usuli ikki xil ijro etiladi.



Buzruk, Rost, Navo va Dugoh maqomlarni Sarahborlari shu doira usullarining birinchi turi. Segoh va Iroq maqomining ikkinchi turi jo‘rligida ijro etiladi.

Sarahborlarning doira usul sur’ati vazmin bo‘lib, ularning ijro etish juda ham qiyndir. Shuning uchun ham ularning ijro etuvchi hofizning ovoz diapazoni keng, nafasi uzun hamda charchab qolmaydigan bo‘lishi kerak. Sarahborlarda Shashmaqomdagi boshqa sho‘‘balar singari bir nechtadan namudlar uchraydi.

Jumladan Sarahbori Buzrukda Namudi Uzzol, va Namudi Muxayari Chorgoh, Sarahbori Dugohda Zebo pari va Namudi Muxayari Chorgoh uchraydi.

Sarahborlar ijrosi va ularni o‘rganish og‘ir bo‘lgani uchun ustozlar maqomlarning boshqa sho`balarini o‘rgatib, keyin Sarahborlarga o‘tganlar.

Shahsmaqomning ashula yo’nalishi nihoyatda murakkab uning usullari Sarahborlar taronalarida o’zgarishi har qanday ishrochidan professionallikni talab qiladi. Undan tashqari baytlarni (ashula) yod olishlik ashulachilarga qiyinchilik tug’dirsa sozandaga esa ashulani baytini o’rganib cholishligini talab qiladi. Agar sozanda ijro qilinayotgan Sarahbor mo’g’ilcha, talqin, nasr va xokazo shashmoqomni nasr yo’lini shulasini yod olib ijro qilmasa professional ijro bo’lishi mumkin emas, chunki har bir chalingan asarni tagida so’z turadi. Bundan tashqari xanglar ular juda murakkab chunki so’zi yo’q lekin usul ichida bo’lishi kerak. Shashmaqomlarni yakka sozda ijro qilish nixoyatda bilim, mehnat va iqtidor talab qilinadi. Hozirga kelib dutor sozi o’zi bir yarim oktavadan iborat bo’lsa ham shashmaqom nasr yo’lidan ham Sarahborlar taronalari bilan,Talqin, mo’g’ilcha, Savtlar ijro qilinmoqda.

Sarahborlar dutor ijrosida nixoyatda murakkab xisoblanadi. Chunki dutor cholg’usining diapozoni 1,5 oktavadan iborat. Sarahbori Buzruk asarini yozishda yuqori namudni olgan holatda musiqa ladini to’g’irlab ashula matnsiz dutor diapazonidan kelib chiqgan holda taronalari suporishlari to’la to’kis holda yozildi.

**Talqinlar haqida –** Talqinlar Shashmaqomning birinchi guruh sho’balariga kiradi. Iroq maqomidan tashqari hamma maqomlarda mavjud. Buzruk maqomida-Talqini Uzzol, Rost maqomida – Talqini Ushshoq, Navoda – Talqini Bayot, Dugohda – Talqini Chorgoh, Segoh maqomida esa Talqini Segoh namunalari mavjud.

Talqin so’zi arab tilida “nasixat etish” degan ma’noda keladi. Talqinlarning takt ritm o’lchovi va doira usuli nimchorak va uchchorak 3\8, 3\4 yoki aksincha joylashtirilgan tartibdagi o’lchovda bo’ladi.



Jumladan Talqini Ushshoq, Sarahbori Rost va uning taronalaridan so’ng ijro etiladi. Talqini Ushshoqning lug’aviy ma’nosi quyidagicha: Talqin – nasixat, tushuntirish, Ushshoq – arabchadan oshiq so’zining ko’plik shakli. Musiqiy istilohda esa Talqin doira usuli, parda, lad ma’nolarini ifodalaydi. Talqini ushshoq o’zining suporishi va bitta taronadan iborat. Asarda Ushshoq, Uzzol, hamda Muhayyari Chorgoh, namudlari uchraydi. Mazkur asar o’zining dilga orom bag’ishlovchi yoqimli kuy oxanglari bilan dutor sozida o’zgacha sadolanadi.

Shashmaqom tarkibidan joy olgan hamohang sho’balar va Ufarlar quyidagilarni tashkil etadi:

Talqini Uzzol – Nasri Uzzol – Ufari Uzzol.

Talqini Ushshoq – Nasri Ushshoq – Ufori Ushshoq.

Talqin Bayot – Nasri Bayot – Ufari Bayot.

Talqini Chorgoh – Nasri Chorgoh – Ufori Chorgoh va boshqalar…

